
IFTORLIK DASTURXONI YOZILDI

Farg'ona shahridagi "Lolazor" mahalla fuqarolar yig'inida ham iftorlik tadbiri o'tkazildi. Unda shahrimizdagi diniy ulamolar, keng jamoatchilik vakillari, mahalla faollari hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadonlar vakillari uchun dasturxon yozildi.

Ishtirokchilar tomonidan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan ezgu ishlar, yurtimizda muqaddas dinimiz soqligini saqlash borasida olib borilayotgan amallar haqida fikr yuritildi.

Shuningdek ushbu tadbirda Qur'on oyatlari o'qilib, turmushimiz farovon, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lishini, xonadonlarimizda hamisha tinchlik hukm surishini tilab duolar qilindi.

Tadbirda ishtirok etgan fuqarolar yurtimizda inson qadrini ulug'lash hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj xonadon vakillariga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan behad xursand bo'lishdi.

2023-04-06 11:15:22